

JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA VA
TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI KURASHISHNI TASHKIL
ETISH

Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tergov faoliyati talabasi.

e-mail: [karimjonsalimov50@gmail.com](mailto:kirimjonsalimov50@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14555863>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish tushunchalari, shuningdek ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilingan qonun hujjatlari mazmun-mohiyati, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: transmilliy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, iqtisodiyot, huquqni muhofaza qiluvchi va tergov organlari, FATF standartlari, ichki nazorat, xorijiy tajriba.

**ORGANIZING THE FIGHT AGAINST THE LEGALIZATION OF THE PROCEEDS
OBTAINED FROM CRIMINAL ACTIVITIES AND THE FINANCING OF
TERRORISM**

Abstract. This article analyzes the legalization of documents obtained from criminal activities and the financing of terrorism, the work being carried out in the Republic of Uzbekistan to combat these crimes, the essence of the adopted legal documents, and the development of relations with international organizations.

Key words: transnational crimes, legalization of proceeds from criminal activities, financing of terrorism, economy, law enforcement and control bodies, internal control, foreign experience.

**ОРГАНИЗАЦИЯ БОРЬБЫ ПРОТИВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ ДОХОДОВ, ПОЛУЧЕННЫХ
ОТ ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ФИНАНСИРОВАНИЯ ТЕРРОРИЗМА.**

Аннотация. В данной статье рассказывается о концепциях легализации доходов, полученных преступным путем, и финансирования терроризма, а также о работе, проводимой в Республике Узбекистан по борьбе с этими преступлениями, сущности принятых правовых документов, укреплении сотрудничества с международными организациями и зарубежные страны.

Ключевые слова: транснациональные преступления, отмывание денег, финансирование терроризма, экономика, правоохранительные и следственные органы, внутренний контроль, зарубежный опыт.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi keskin va murosasiz kurash ayni paytda jahon hamjamiyatini o'ylantirib kelayotgan muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uyushgan jinoyatchilikning transmilliy xarakter kasb etishi ushbu muammoga ko'proq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan va uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishiga sharoit yaratayotgan transmilliy jinoyatlardan biri sifatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyatini misol qilishimiz mumkin.

Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish - pul mablag'lar yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligin yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Ya'ni, aybdor tomonidan jinoiy faoliyat natijasida orttirilgan mulkning kelib chiqishiga qonuniy tus berilishi jinoiy daromadlarni legallashtirish hisoblanadi.

O'z navbatida, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy ta'minlash moliyaviy, bank, bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalarni litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ko'pgina mamlakatlarda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy chora-tadbirlar uchun o'ziga xos asos bo'lib xizmat qiluvchi "namunali" qonunlar mavjud. Jumladan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish sohasi hozirgi paytda 2004-yil 26-avgustdag'i "Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrdagi Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida" gi PQ-3947-sonli qarori hamda boshqa ushbu sohada normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

"Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" qonunning 4-moddasida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar korsatib otilgan bo'lib, quydagilardan iborat:

- maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
- ichki nazorat;
- mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar;
- tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar.

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat - pul mablag'lar yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar taqdim etadigan axborotni tekshirish va qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Ichki nazorat pul mablag'lar yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir. Ichki nazorat amalga oshirilayotganda zarur axborotni rasmiylashtirish, uning maxfiyligini ta'minlash tartibi, kadrlarni tayyorlash va o'qitishga doir malaka talablari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'lar yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash mezonlari va ularning

alomatlari belgilanadi. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun ichki nazorat qoidalari tegishli nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi va ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda, bunday organlar bo‘lmagan holda esa, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Ichki nazorat qoidalariiga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat mazkur qoidalarni tasdiqlagan organlar, shuningdek maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

- ichki nazorat qoidalarda belgilangan hollarda xo‘jalik, fuqaroviylar huquqiy munosabatlari aniqlanganda;
- ichki nazorat qoidalarda belgilangan hollarda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq bir martalik operatsiyalar amalga oshirilganda;
- shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;
- mijozning shaxsi to‘g‘risida avval olingan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga nisbatan shubhalar mavjud bo‘lganda, mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha mustaqil chora-tadbirlar ko‘rishlari shart.

Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish bo‘yicha ko‘rildigan chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

- 1.Tegishli hujjatlar asosida mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko‘rayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirishni;
- 2.Ta’sis hujjatlari asosida mulk va boshqaruva tuzilishini o‘rganish orqali mulkdorni yoki yuridik shaxs bo‘lgan mijozni nazorat qiluvchi shaxsni identifikasiyalashni;
- 3.Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni ularning bunday mijoz va uning faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o‘rganishni.
- 4.Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning, shuningdek ichki nazorat qoidalariга rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiruvchi organlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol utilgan tavakkalchiliklarni o‘rganishni, tahlil qilishni va aniqlashni o‘z faoliyatida tizimli ravishda, yiliga kamida bir marta amalga oshirishi, o‘rganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi hamda aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirishga doir tegishli choralar ko‘rishi shart.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish hollarining oldini olish yoki sonini kamaytirish uchun qo‘llaniladigan choralar aniqlangan tavakkalchiliklarga muvofiq bo‘lishi hamda nazorat qilishning kengaytirilgan yoki soddalashtirilgan choralarini qo‘llash hamda resurslarni samarali taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini berishi kerak.

Tavakkalchiliklarni baholash natijalari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtiroy etuvchi barcha organlarga hamda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga yetkazilishi

kerak. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan tavakkalchiliklarni baholash bo'yicha choralarни muvofiqlashtirishni maxsus vakolatli davlat organi amalgalashiradi.

Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida maxsus vakolatli davlat organi pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar o'tkazilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalgalashiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagagi PF-99-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar; jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish; terrorizmni moliyalashtirish; ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalgalashiradi. Oshiruvchi mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentyabrdagi PQ-3947-sonli Qarorida belgilangan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha idoralalararo komissiya bilan hamkorlik samarali hisoblanadi. Bu qarorda jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq xavflarni baholash bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish; jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; FATF tavsiyalaridagi talablarni va xalqaro-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilishni ta'minlash belgilangan.

Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun o'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi zarur. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti olingen axborotni tahlil qiladi va tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboradi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi bor-yo'qligi, javobgarlikka tortish va jinoiy mol-mulk taqdiri hal etiladi. Samarali hamkorlik uchun axborot almashinuvi eng muhim hisoblanadi, shuningdek xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda tizimli muloqotni yo'lga qo'yish lozim. Masalan, xalqaro tashkilotlardan biri, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi 2004-yilda tashkil etilgan. FATF tipidagi tashkilotining mintaqaviy guruhi hisoblanadi. Bu guruhga 9ta mamlakat a'zo hisoblanadi: Belorus, Hindiston, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Turkmaniston, O'zbekiston(2005-yildan). Yevroosiyo guruhi tomonidan 2020-yilda O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni

moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini o'zaro baholash rejalashtirilgan. Shunday tashkilotlardan yana biri "Egmont" moliyaviy razvedka bo'linmalari guruhi hisoblanadi. "Egmont" guruhi 170 ta moliyaviy razvedka bo'linmalarini birlashtiradi. "Egmont" guruhi moliyaviy razvedka bo'linmalari o'rtasida jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha axborot va tajriba almashish uchun platforma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentyabrdagi 710-sonli qarorida "Egmont" moliyaviy razvedka bo'linmalari guruhining faoliyatida ishtiroy etish belgilab o'tilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish har bir davlatning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi keskin va murosasiz kurash jahon hamjamiyatini o'ylantirib kelayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanib, uyushgan jinoyatchilikning transmilliy xarakter kasb etishi ushbu muammoga barcha davlatlar tomonidan ko'proq e'tibor qaratishi lozimligini taqozo etadi. Shu munosabat bilan, mazkur jinoyatga qarshi jahon hamjamiyati tomonidan hamkorlik ko'lamini kengaytirish, unga qarshi birgalikda kurashish, kelgusida shu kabi jinoyatlarning sodir etilishining keskin oshib ketishining oldi olingan bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. Toshkent sh. 2004 yil 26 avgust, 660-II-son.
2. Liability for legalization of incomes obtained from the proceeds of the offences in international law acts and legislation of foreign countries. Fazilov Farkhod Maratovich, Tashkent state university of law, Tashkent, 100047, Uzbekistan.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiinng 2011 yil 11 fevraldag'i "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi 1-sonli qarori. <http://www.lex.uz/>.
4. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.:Adolat. 2006. 476- b .
5. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/jinoiy_daromadlarni_legallah_tirishga_qarshi_kurashish_-_milliy_darajada.